



CHET TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIYLASHUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Muallif: Zaylobidinova Munira G'ulomovna¹, Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich²

Affiliatsiya: Farg'onha davlat universiteti, PhD doktoranti¹, Pedagogika fanlari doktori, professor²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14442247>

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda chet tillari darslarini samarali tashkillash uchun ijtimoiylashuv ya'ni hayotiy ko'nikmalarini qo'llab dars o'tish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuv jarayoni o'quvchilar orasida hamkorlikni shakllantirish, o'zaro muloqot va fikr almashtirish imkoniyatlarini oshirish, bir biriga yordam berish va bir maqsad sari harakat qilishni o'rgatadi. Quyidagi maqolada bunday yondashuvni o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga, ularga til o'rganish jarayonida yangi bilim-ko'nikmalarini kashf qilish afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, hayotiy ko'nikma, hamkorlikni shakllantirish, guruhlarga bo'lib ishslash, kompetensiya.

Hozirgi zamon ta'limi nafaqat o'quvchilarning bilim olishini, balki ularning ijtimoiylashuv jarayonini takomillashishini ham talab qiladi. Akbarovning ta'kidlashicha ijtimoiylashuv jarayonining asosiy mazmunini "Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o'zini alohida olingan shaxs sifatida tasawur qilishi" ya'ni "individuallashuvi" tashkil qiladi [1]. Shuningdek, Ismoilova (2024) ijtimoiylashuv atamasi fanlararo bo'lib, turli sohalarda turlicha ma'noda qo'llaniladi deydi [2]. Chet tilini o'rgatish metodikasida ijtimoiylashuv atamasini hayotiy ko'nikmalarni qo'llab dars o'tish ya'ni guruhlarda ishslash va o'quvchilar orasida hamkorlikni shakllantirish ma'nosida ishlatamiz.

Hozirda hech kimga sir emas chet tillarini bilishga yurtimizda alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori [5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil, 19- maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [3], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-yanvar 2022 yildagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 34-sun qarori [4] va boshqa ta'limga doir qarorlarda ko'rinish turibdiki, yurtimizda chet tillarini o'rganish muhim siyosiy jarayonga aylangan. Shunday ekan, tabiiyki, chet tillarini o'rgatish mexanizmi ham an'anaviy usuldan voz kechib yangicha usullarni qamrab

olishi kerak. Yangicha usul deganimizda, hozirda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda katta e'tibor berilayotgan "ijtimoiylashuv" ya'ni hayotiy ko'nikmalarini qo'llab dars o'tishni nazarda tutmoqdamiz. Bunda o'quvchilar orasida hamkorlikni kuchaytirish va guruhlarda ishslash kabi ko'nikmalar, ayniqsa chet tillari darslarida alohida ahamiyatga ega.

Zaylobidinovaning (2024) ijtimoiy tadqiqoti o'quvchilarda tanqidiy fikrlash (8%) va muammolarni yechish (16%) ko'nikmalariga nisbatan hamkorlik (46%) va guruhda ishslash (37%) kompetensiyalari ko'proq shakllanganligini aniqladi [6]. U guruhlarda ishslash va hamkorlik o'quvchilarga chet tilida muloqot qilish imkoniyatini yaratib uyatchan va passiv o'quvchini faollashtiradi deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, o'quvchilar guruhda ishlaganda har bir o'quvchi o'z fikrini ifodalashga-kommunikatsiya, o'zgalarning fikrlarini tinglashga-faol eshitish kabi boshqa ko'nikmalarni ham shakllanishiga sababchi bo'ladi. Masalan, o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ularga dolzarb mavzuda munozara qilish yoki guruh loyihalarda qatnashish imkoniyati berilsa, an'anaviy darslarga nisbatan o'quvchilar ancha faol bo'lishi kuzatildi. Bundan tashqari, guruhlarda ishslash va hamkorlik o'quvchilarning o'zaro mas'uliyatni bo'lish hisini oshiradi. Guruhdagi vazifalar va rollarni taqsimlash orgali har bir o'quvchi muayyan vazifaga mas'ul bo'lib, jamoaning umumiy muvaffaqiyati uchun o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Bu orgali o'quvchilar mustaqil bo'lishni va o'z vazifalarini aniq bajarishni o'rganadilar. Masalan, guruhdagi bir o'quvchi rahbarlik qilishni, ikkinchisi yozuv yoki matnni tayyorlashni, uchinchisi esa taqdimotni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi. Shu tariqa, ular o'z faoliyatları uchun javobgarlikni his qilishadi va o'z ishining natijasini guruhning umumiyligi maqsadlariga qanday ta'sir qilishini anglaydilar.

Guruhda ishslash vaqtida o'quvchilar o'rganish jarayonining faol ishtiroychilariga aylanadilar ya'ni ular diqqat markazda bo'ladilar. Bu jarayonda ular faqat bilimlarni o'zlashtirib qolmay, balki o'z fikrlarini ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash va ularni to'g'ri tushunish qobiliyatini rivojlantiradilar. Chet tili darslarida bu usul o'quvchilarni tilga chuqurroq sho'ng'ishiga, jumlalarni to'g'ri tuzish, talaffuzni yaxshilash va haqiqiy hayotiy vaziyatlarda tilni ishlatish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarda hamkorlikni va guruhda ishslashni shakllantirish bosqichlari

O'quvchilarda hamkorlikni va guruhda ishslashni shakllantirish bosqichlari O'quvchilarda hamkorlikni shakllantirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Har bir bosqich o'quvchilarni birgalikda ishslashga, o'zaro tushunishni shakllantirishga va bir-birini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Guruhlarni to'g'ri tashkil etish va rollarni ta'minlash.

O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda ularning bilim darajasi va hayotiy ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligiga e'tibor qaratish kerak. Guruh ichida rollar aniqlanishi kerak – masalan, sardor, yozuvchi, taqdimotchi, savol beruvchi kabi. Rollarning taqsimlanishi o'quvchilarga o'z mas'uliyatini his etishga yordam beradi va har bir o'quvchining dars jarayonida faol ishtiroy etishini ta'minlaydi.

Guruhda hamkorlik muhitini yaratish.

O'quvchilar birgalikda ishslashlari zavqli bo'lishi uchun qulay va ochiq muhit yaratish zarur. O'qituvchi guruhlarga topshiriqlarni taqdim etib, har bir o'quvchining fikriga qiziqish bildirish orgali ularning faoliyatini rag'batlantirishi kerak. Bu bosqichda

o'quvchilarning har biri o'z fikrini erkin bildira oladilar va guruhdagi boshqa a'zolarni qo'llab quvvatlashni o'rganadilar.

Jamoaviy topshiriqlar tanlash.

Darsda ko'rildigan topshiriqlar o'quvchilarning ham til o'rganish jarayonini, ham jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak. Misol uchun, guruhlararo munozara, rolli o'yinlar, mavzuga oid vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarda faqat lug'at va grammatikani o'rganish emas, balki haqiqiy hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Masalan, "restoranda ovqat buyurtma qilish", "yangi do'stlar bilan tanishish" kabi haqiqiy vaziyatlarga mos topshiriqlar orqali o'quvchilar o'rganayotgan chet tilini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Refleksiya va tahlil

Dars yakunida guruhlarining faoliyatini tahlil qilish muhim. Har bir o'quvchi o'z rolini qay darajada bajarganini, guruhnning umumiy muvaffaqiyatiga qanday hissa qo'shganini tahlil qiladi. Bu orqali ular kelajakda o'zlarining xatolaridan saboq olish va yanada samarali ishlash uchun tajriba orttiradilar. Tahlil jarayonida o'quvchilar o'z yutuqlari va kamchiliklarini ochiq muhokama qilib guruhda shaffoflik muhitini yaratadilar.

Chet tili darslarida guruhda ishlash va hamkorlikning ahamiyati

Jamoada va hamkorlikda ishlash yordamida o'quvchilar mustaqil qarorlar qabul qilishni, muammolarni birgalikda hal qilishni va o'zaro yordam ko'rsatishni o'rganadilar. Chet tili darslarida bu yondashuv nafaqat til o'rganishga, balki o'quvchilar o'rtasidagi do'stlik, muloqot va bir-birlarini tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu esa ularning kelajakdagagi ijtimoiy, kasbiy va professional muvaffaqiyatlarga erishishga ko'mak bo'ladi. Bundan tashqari, guruh va hamkorlikda ishlash o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va o'rganayotgan chet tilini kundalik hayotda faolroq qo'llashga undaydi. Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar darsdagi bilimlarni haqiqiy vaziyatda qo'llash imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Misol uchun, guruhli munozaralar, rolli o'yinlar va vaziyatli mashqlar yordamida til o'rganuvchilar haqiqiy hayotiy muloqot qilish tajribasini orttiradilar. Bu esa o'quvchilarni tilni amalda ishlatishga, grammatika va talaffuzni yaxshilashga yordam beradi.

Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilarda o'zaro mas'uliyatni taqsimlash, jamoa bilan birgalikda maqsadga erishish va bir-birini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari rivojlanadi. Guruhdagi har bir qatnashchi o'zining muayyan vazifasiga ega bo'lib, umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlaydilar. Masalan, kimdir jamoa sardori bo'ladi, boshqalar yozuv yoki taqdimot tayyorlashni o'z zimmasiga oladi. Bu jarayon o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi va liderlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. O'quvchilarda guruh va hamkorlik ishlash ko'nikmalarini shakllantirish chet tili darslarini yanada interaktiv va samarali bosqichga olib chiqadi. Bu metod orqali o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradilar va o'rganayotgan tilni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, guruh va hamkorlikda ishlash usuli nafaqat til o'rganishda, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida ham muhim o'rinn tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Akbarov S. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining psixologik tavsifi.

Ismoilova, S. V., Shivoqova, R. O., Amonov, A., Maxkamova, X., Todjiboyeva, M., & Yulchiyeva, R. (2024). SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVI VA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 2024, Academic research in educational sciences, (1), 266-271.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 y., 09/22/34/0048-son; 20.10.2022 y., 09/22/612/0949-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. Xalq so'zi. 12. 09. 2023.Nº 190. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Yangi O'zbekiston. № 22. 02.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori.

Zaylobidinova M.G. "Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarining ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish"; 2024, FDU-ilmiy habarlar.

